

TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

---

# TURKOLOGIYA TURKOLOGY

XALQARO ILMIY JURNAL


---

ISSN 2181-2101

2025

**2**

ISSN 2181 – 2100



# **TURKOLOGIYA TURKOLOGY**



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES**

**2**

**2025**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro'yxatidan o'tgan  
(№ 1129, 11.11.2020-y.) ISSN 2181 – 2101

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna**  
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**TAHRIR HAY'ATI**

|                       |                                                                              |
|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Q. Omonov</b>      | <i>filologiya fanlari doktori, professor<br/>(bosh muharrir o'rinbosari)</i> |
| <b>P. Kenjayeva</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor<br/>(mas'ul kotib)</i>              |
| <b>B. To'xliyev</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>Q. Sodiqov</b>     | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>Sh. Usmonova</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>H. Dadaboyev</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>N. Rahmonov</b>    | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>B. Karimov</b>     | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>X. Islamjanova</b> | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>X. Hamidov</b>     | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                 |
| <b>A. Alimbekov</b>   | <i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>                                 |
| <b>Dj. Shabanov</b>   | <i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>                                   |
| <b>Sh. Sodiqova</b>   | <i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>                                   |
| <b>M. Kayumova</b>    | <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>            |
| <b>N. Abdullayev</b>  | <i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>                                     |
| <b>M. Is'hoqov</b>    | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                      |
| <b>D. Sayfullayev</b> | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                      |
| <b>X. Fayziyev</b>    | <i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>                                        |
| <b>Z. Alimov</b>      | <i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                          |
| <b>N. Xolmatov</b>    | <i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>                                      |
| <b>Z. Qodirova</b>    | <i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>               |
| <b>M. Vohidova</b>    | <i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                        |
| <b>R. Bahodirov</b>   | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i>                                    |
| <b>A. Shonazarova</b> | <i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>                            |
| <b>O. Mert</b>        | <i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>                            |
| <b>H. Baydemir</b>    | <i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>                           |
| <b>V. S. Yelok</b>    | <i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>             |
| <b>N. Telitsin</b>    | <i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>                         |

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi  
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy  
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz  
web-site: www.tsuos.uz

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE STUDIES

|                                                                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Kencayeva P., Leyla Doğan</b> Orhan Kemal'in hikâyelerinde dönem manzaralarının sanatsal yorumu .....              | 4  |
| <b>Muxiddinova D.</b> Zamonaviy turk va arab adabiyotida “Eng qisqa hikoya” janri.....                                | 14 |
| <b>Kayumova M.</b> Haldun Tanerning badiiy tildan foydalanish mahorati .....                                          | 21 |
| <b>Saydaliyeva N., Tursunaliyeva D.</b> Turkiy xalqlar ertaklarining falsafiy-estetik jihatlari .....                 | 30 |
| <b>Xamdorov E.</b> Ziygo Go'kalp she'rlarida vatan – afsonaviy makon, uning bunyod etilishi sifatida.....             | 39 |
| <b>Komilova Z.</b> Turk va o'zbek dramaturgiyasida ozodlik masalasi: Turgut O'zakman va Hamza dramalari misolida..... | 49 |

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

|                                                                                                                                 |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Aminova L.</b> Yaşar Kemal'in eserlerinde gerçek olayların tasviri .....                                                     | 58 |
| <b>Allamberganova M.</b> “Ko'k turk” etnonimining etimologiyasiga doir .....                                                    | 71 |
| <b>Altinboyev N.</b> “Oila” konseptining turk tilidagi qadriyat va metaforalarda ifodalanishi.....                              | 83 |
| <b>Shamsimatova M.</b> Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida qo'llanilgan maqollarning semantik-uslubiy o'ziga xosliklari ..... | 96 |

### TARIXSHUNOSLIK // ИСТОРИОГРАФИЯ // HISTORIOGRAPHY

|                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>To'rayev L.</b> “Rabi' ul-abror” asarining turkiyada o'rganilishi.....         | 104 |
| <b>Ergashev J.</b> Turkiy qabilalarning Buxoro uchun kurashi: tarixiy tahlil..... | 111 |

milliy an'analar, udumlar, odob-axloq, muloqot me'yorlari kabi millatning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi, milliylik xususiyati ajralib turadigan maxsus milliy-madaniy birliklar etnolingvistika, lingvopragmatika, etimologiya kabi fanlarning asosiy o'rganish obyekti sifatida qimmatga ega. "Ko'k" leksemasida xalq idroki, madaniy munosabatlari, dunyoqarashi hamda shaxs tasavvurlari, e'tiqodi, ongi, kognitiv bilimi bilan aloqador semantika o'z ifodasini topgan. Turkologiyada "ko'k" leksemasi belgi bildiruvchi so'zlar, ranglar simbolikasiga bag'ishlangan ishlarda tahlil qilingan. Rang-tus sifatleri bo'yicha qilingan ishlarda, asosan, ularning semantikasi va ramziy ma'nolariga katta e'tibor berilgan. Ko'k rang leksemasi nutqda turli pragmatik ma'nolarda qo'llanadi. Ko'k rang leksemalarining pragmatik ma'nolari alohida, monografik jihatdan o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. –B. 95.
2. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsira XII-XIII вв., – М.,1963. –С. 15.
3. Бузрук Миён. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. –Тошкент: Ўзнашр, 1930. –Б. 60-62.
4. Даврон Н. Проф. Фитрат томонидан ўқилган маъруза матни. Самарканд давлат университети, 1936. –Б.15.
5. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках / А.Н.Кононов // Тюркологический сборник-1975. – М.: Наука, 1978. – С.169-172
6. Раҳмонов Н., Матбобоев Б. Ўзбекистоннинг кўҳна туркий-рун ёзувлари. – Тошкент: Фан, 2006. – 68 б. 30.
7. Раҳманов Н. Ўрхун-Енисей ёзуви ёдгорликлари. – Тошкент: Фан, 2006. – 350 б.
8. Israilova S. "Ko'k" leksemasi semantikasi va tezaurusi" nomli monografiya, 2023-yil.

#### “OILA” KONSEPTINING TURK TILIDAGI QADRIYAT VA METAFORALARDA IFODALANISHI

**Nuriddin ALTINBOYEV**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU*

**Annotatsiya.** Turk madaniyatida 'oila' eng muhim qadriyat bo'lib, turk millatida bu qadriyat yuzyillar davomida turli madaniyatlar bilan qorishgan holda kunimizgachah yetib kelgan. Qadriyatlarning ayrimlari islomdan oldingi davrlarga borib taqaladi, ba'zilari esa turklarning islom dini qabul qilganidan keyin shakllangan. Turk xalqlarining paydo bo'lishiga doir afsonada ayol bo'ri timsoli keng uchraydi. Urg'ochi bo'ri bolani himoyasiga olgan va katta qilganligi bois turklar o'zlarini bu bo'riga yaqin oladilar va uni muqaddas deb biladilar. Turk oilasi haqida xitoy manbalarida matriarxal oila deyiladi. Ota oilaning ta'minotchisi, himoyachisi bo'lsa ham, ona turk madaniyatida hamisha oilaning asoschisi sifatida qaralgan. Turk madaniyatida har bir oila a'zosining o'z o'rni va roli bor. Har bir oila a'zosining o'z

nomlanishi bor. Qarindosh-urug'chilikka oid so'zlarning soni turk tilida boshqa tillarga nisbatan ancha ko'p ekanligi ham oilaga bo'lgan munosabatning muhim bir ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur maqolada oila tushunchasining lingvomadaniy jihatlarini tadqiq qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi oila bilan bog'liq qadriyatlar, tushunchalar va metaforik ifodalarni turk tilidagi leksik, frazeologik va paremiologik birliklar orqali ochib berishdan iborat. Tadqiqotda oila konsepti uy, uylanish, sovchilik, sarpo, qalin, to'y, nikoh, beshik kabi qadriyatlar asosida tahlil qilinadi, shuningdek, ostona, in, o'choq kabi metaforik ifodalar turk xalqining dunyoqarashini ochib berishga xizmat qiladi. Maqolada qo'llanilgan lingvistik tahlil va kulturologik tahlil metodlari tadqiqotning yoritilishida muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari turk tilida 'oilal' konsepti an'anaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq hamda til va madaniyatning o'zaro ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatdi. Maqola turk xalqining ijtimoiy-madaniy hayotini tushunishda muhim lingvistik dalillarni taqdim etadi. Zamonaviy jamiyatda qadriyatlarning o'zgarishini tushunishga yordam beradi.

**Tayanch so'zlar:** oila, konsept, qadriyat, metafora, lingvomadaniyat, uy, uylanish, sovchilik, sarpo, qalin, to'y, nikoh, beshik, ostona, in, o'choq.

**Özet.** Türk kültüründe en önemli değer 'aile'dir ve bu değer yüzyıllardır Türk milletinde korunarak, farklı kültürlerle harmanlanarak günümüze kadar gelmiştir. Bazı değerler İslamiyet öncesine dayanırken, bazıları da Türklerin İslamiyet'i kabul etmesinden sonra oluşmuştur. Türk halklarının ortaya çıkışını anlatan mitlerde dişi kurt imgesi sıkça yer almaktadır. Dişi kurt, yavrusunu koruyup büyüttüğü için Türkler bu kurdu kutsal sayarlar. Dolayısıyla Çin kaynakları Türk ailesini anaerkil bir aile olarak tanımlıyor. Baba ailenin geçimini sağlayan ve koruyan kişi olmasına rağmen, anne Türk kültüründe her zaman ailenin kurucusu olarak görülmüştür. Türk kültüründe ailedeki her bireyin ayrı bir yeri ve rolü vardır. Ailenin her ferdinin kendine ait bir ismi var. Türkçede akrabalık bağlarıyla ilgili sözcük sayısının diğer dillere oranla çok daha fazla olması da aileye yönelik tutumun önemli bir göstergesidir. Bu makalede aile kavramının kültürelbilimsel boyutları incelenmektedir. Makalenin temel amacı, Türk dilinde aile ile ilgili değer, kavram ve metaforik ifadeleri leksik, deyimsel ve sözcüksel birimler aracılığıyla ortaya koymaktır. Çalışmada aile kavramı, ev, evlilik, düğün, çeyiz, kalın, düğün, nikah, beşik gibi değerler üzerinden ele alınmakta, ayrıca eşik, yuva, ocak gibi metaforik ifadeler kullanılarak Türk insanının dünya görüşü ortaya konulmaktadır. Makalede kullanılan dilbilimsel ve kültürel analiz yöntemleri araştırmanın kapsamının belirlenmesinde önemli rol oynamaktadır. Çalışmanın sonuçları, Türkçede 'aile' kavramının geleneksel değerlerle sıkı bir bağa sahip olduğunu, dil ile kültür arasında güçlü bir etkileşimin olduğunu ortaya koymuştur. Makale Türk halkının sosyo-kültürel yaşamının anlaşılmasında önemli dilbilimsel kanıtlar sunmaktadır. Modern toplumda değişen değerlerin anlaşılmasına yardımcı olur.

**Anahtar kelimeler:** aile, kavram, değer, metafor, kültürelbilim, ev, evlilik, düğün, çeyiz, kalın, düğün, evlilik, beşik, eşik, yuva, ocak.

**Abstract.** Family is one of the most important values in Turkish culture, which has been formed over the centuries under the influence of various cultural traditions and has survived to the present day. Some family values originate from the pre-Islamic period, while others were formed after the adoption of Islam by the Turkic peoples. In



*the myths about the origin of the Turks, the image of a female wolf who took under protection and brought up a child occupies a significant place; therefore, the Turks perceive the she-wolf as a sacred being. Chinese sources characterise the Turkic family as matriarchal. Although the father acts as the breadwinner and protector, the mother in Turkic culture has always been considered the backbone of the family. Each member of the family has its own name. The fact that the number of words related to kinship in Turkish is much higher than in other languages is also an important indicator of attitudes towards family. This article examines the linguocultural aspects of the concept 'family' in Turkish. The aim of the study is to analyse family values, concepts and metaphorical expressions through lexical, phraseological and paremiological units. The study covers such concepts as 'home', 'marriage', 'matchmaking', 'dowry', 'kalin', 'wedding', 'nikah', 'cradle', as well as metaphors such as 'threshold', 'nest', 'hearth', reflecting the worldview of the Turkish people. The application of linguistic and cultural analysis methods plays a key role in revealing the topic. The results of the study show that the concept 'family' in Turkish is closely related to traditional values, and the mutual influence of language and culture is particularly pronounced. The article presents important linguistic data for understanding the socio-cultural life of the Turkish people and contributes to the comprehension of the transformation of values in modern society.*

**Key words:** family, concept, value, metaphor, 'home', 'marriage', 'matchmaking', 'dowry', 'kalin', 'wedding', 'nikah', 'cradle', 'threshold', 'nest', 'hearth'.

**KIRISH.** Qadriyatlar bu har bir xalq insonlari amalda qo'llanilishi va o'zlarining eng yaxshi hayot tarzlarini namoyish etishi uchun ijobiy deb hisoblanadigan fazilatlar, xususiyatlar va tamoyillardir. Madaniy qadriyat esa jamiyatlarning e'tiqodlari, urf-odatlar, tillari va munosabatlari majmuasidir. Jamiyat, jamoa va etnik guruhlarining madaniy merosi madaniy qadriyatlarda jamlanadi va namoyon bo'ladi. Madaniy qadriyatlarning insoniy va ijtimoiy jihatdan umumiyliklari bo'lsa ham turli jamiyatlarda o'ziga xos jihatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Bunda shu jamiyat insonlarining moddiy va nomoddiy boyliklarga qaratadigan ahamiyati bir-biridan farqlanishi asosiy jihat hisoblanadi.

**Maqsad va vazifalar:** Turk tilida 'oila' konseptining lingvomadaniy jihatlarini tadqiq qilish. Mazkur konseptning turk xalqining qadriyatlari va an'analarida qanday aks etganligini metaforik vositalar orqali o'rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

- "Oila" bilan bog'liq asosiy qadriyatlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish;
- "oila" haqidagi turk metaforalarini aniqlash va ularning ma'nolarini ochib berish maqolamizning vazifalarini tashkil qiladi.

**Usullar:** Oila bilan bog'liq so'z va iboralarni aniqlagan holda ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish va maqollardan kelib chiqqan holda 'oila' tasvirini yaratish uchun kultutologik tahlil qilish usullaridan foydalaniladi.

**Natijalar va mulohazalar:** Turk madaniyatida oila eng muhim madaniy qadriyat hisoblanadi, shuning uchun turklar oiladagi yoshi ulug'larga hurmat ko'rsatish, ota-onasiga g'amxo'rlik qilish, oilaning barcha a'zolari bilan mustahkam va muntazam aloqada bo'lish (silayi rahm qilish) kerakligiga qattiq ishonadilar<sup>1</sup>. Turklarda qadimgi yunon va slavyanlar singari ota oilaning yagona boshqaruvchisi va qolgan oila a'zolari uning qullari emas. Biroq bu uyda ota hokimiyati butunlay yo'q degan ma'noga ham kelmaydi, ya'ni uyda onaning ham hurmati va izzati yuqori o'rinda turadi. Turk oilasi haqida ba'zi manbalar (masalan, xitoy manbalarida) matriarxal oila deyiladi. Buning isboti sifatida turk xalqlarining paydo bo'lishiga doir afsonadagi bo'rining ayol bo'lganligi ehtimoli bilan bog'laydilar. To'g'ri, urg'ochi bo'ri bolasini himoyasiga olgan va katta qilgan, lekin bu bo'ri bilan aloqa qilgan erkak ekanligini unutmaslik kerak. Turklar o'zlarini bu bo'riga yaqin oladilar va uni muqaddas deb biladilar. Shuning uchun turklarda onaning nasli muhim hisoblanadi<sup>2</sup>.

Turk tilida oila so'zining izohida *evlilik* (turmush qurish) so'zi keladi. Mazkur leksik birlik *ev* ya'ni uy so'zidan yasalgan yasama so'z bo'lib, *ev+li+lik* semalaridan tarkib topgan. Birinchi galda *ev* so'zini ko'rib chiqamiz.

*Ev* so'zi qadimgi turkiyda *eb* "qo'nim, chodir" [Orxun bitiklari(735) ma'nosini anglatgan: *özün edgü körteçi sen ebiñe kirteçi* (sen yaxshilik ko'rasan, uyingga kirasan)]. Evlemek – uylantirmoq [Orxun bitiklari (735): *inim yéti urım üç kızım üç ärti äblädim* (yetti ukam, uch o'g'lum, uch qizim bor edi uyli-joyli qildim)<sup>3</sup>].

*Ev* so'zi hozirgi turk tilida, birinchi ma'nosi, faqat bir oila yashashi uchun mo'ljallab qurilgan inshoot. Ikkinchi ma'nosi, bir kishi yoki bir oila yashaydigan yer, turarjoy, xonadon: "*Ana oğul, yeni kiradıkları eve bir pazar günü taşındılar*". – N.Cumali (Ona-o'g'il ijaraga olgan yangi uyga yakshanba kunlarning birida ko'chib o'tdilar)". Uchinchisi esa, majoziy ma'noda bo'lib, oila tushunchasini ifodalaydi: *Evine bağlı bir adam* (Oilasiga g'amxo'r inson). Oxirgi, to'rtinchi ma'nosi esa eskirgan bo'lib, nasl-nasab ma'nosida qo'llaniladi<sup>4</sup>. Uy bilan bog'liq, *ev açmak* va *ev bozmak* iborolari ham oila bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi. *Ev açmak* iborasining birinchi ma'nosi "alohida uy qilib chiqmoq, alohida uyga joylashmoq"ni anglatga, ikkinchi ma'nosi "uylanmoq"ni bildiradi: *Böyle birine evimi açmaktan memnun olurum* (Shunday kishi bilan turmush qurishdan baxtiyorman). *Evlendikleri günün ertesinde ev açmaya karar verdiler* (Uylangan1 kunining ertasiga alohida olib chiqishga qaror qildilar). *Ev bozmak* iborasi ham

<sup>1</sup> Evason N. Family. 2019. <https://culturalatlas.sbs.com.au/turkish-culture/turkish-culture-family#turkish-culture-family>

<sup>2</sup> Gömeç S. Türk ailesine genel bir bakış // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık, 2015. – s. 4.

<sup>3</sup> <https://www.etimolojiturkce.com/kelime/ev>

<sup>4</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 834.



ikki ma'noda qo'llaniladi, birinchi galda "er xotin ajrashmoq", ikkinchisi esa, "er-xotinning ajrashishiga sababchi bo'lmoq". *Kadın var ev yapar, kadın var ev bozar* (M.Y., 206) (Uyni (oilani) quradigan ham ayol, buzadigan ham ayol) Ev adamı iborasi, uyiga, oilasiga g'amxor erkakdir: *Engin, gerçek bir ev adamıydı, eşini çocuklarını hep korur kollardı* (Engin haqiqiy oilasiga sodiq kishi edi, ayoli va bolalarini hamisha qo'llab-quvvatlar edi).

*Evlenmek* fe'li ham ev so'ziga -le+n fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalgan va uylanmoq, oila qurmoq ma'nolarini anglatadi: "*Öyle olmasa Musa ile evlenmez, talipleri içinde en beğendiği İsa'nın İstanbul'dan dönmesini beklerdi*". – E.Şafak (Unday bo'lmasa, Muso bilan turmush qurmas, talabgorlar orasida ko'ngliga eng yoqqan Isoning Istanbuldan qaytishini kutgan bo'lardi). Mazkur termin uylangan o'g'il yoki turmush qurgan qizning ota uyini tark qilib boshqa yangi uy – oila qurishi ma'nosini beradi. Erkak ham, ayol ham turmush qurish chog'iga yetgach yoki turmush qurgach ulg'aygan hisoblangan. Chunki turmush qurayotgan farzand oilani boshqara olishi orqali jamiyat va davlatda fikr bildirish huquqiga ega bo'lganlar. O'g'il farzand uylanib alohida bo'lgan taqdirda ham ota so'ziga itoat saqlanib qoladi. Turk oilasida uy kichik o'g'il farzandga qolgan. Bu kichik farzand faqatgina ota yoki ona vafotidan keyingina uylangan. Bunday holatlarda yana oilaning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan kelib chiqilgan. Shu tariqa qadimda turklar kichik oila tuzimida yashaganlar va jamiyat uchun mustaqil shaxs yetishtirishga harakat qilganlar<sup>1</sup>. *Evlenmek barklanmak* juft fe'li ham oila qurmoq ma'nosida qo'llaniladi. *Ev bark* so'zi turk tilining izohli lug'atida birinchi izohi uy, mulk bo'lib, *Almanya'da ev bark düzerek bir daha dönmemişti*. – Ö.Seyfettin. (Germaniyada uy-joy qilib, shu bilan qaytmadi); ikkinchi izohi esa oila, bola-chaqa: *Ev bark sahibi olunca hepsinden vazgeçti. Karısını da gül gibi geçindirdi*. – M.Ş.Esendal<sup>2</sup> (Bola-chaqali bo'lgach hammasini yig'ishtirdi. Xotinini ham bekami-ko'st ta'minlab qo'ydi) tarzida keladi.

*Evli* sifatining uch ma'nosi bo'lib, birinchi ma'nosi, uylangan yoki turmushga chiqqan: "*İlk tanıştığı adamlara derhal evli olup olmadıklarını sorar*". – R.H.Karay (Birinchi bor tanishayotgan kishilardan darrov turmush qurganmisiz yo'qmi deya so'rar edi); ikkinchi ma'nosi, uy, xonadonga ega, ya'ni *Yirmi evli bir sokak* (Yigirmata xonadonli bir ko'cha); uchinchi ma'nosi esa, uy-joyi bor degan ma'noni anglatadi. Ushbu ma'nolar ichida birinchi ma'no turk tilida oila konsepti doirasidan joy olgan leksemelardan biri hisoblanadi. Hatto, *evli barklı* juft so'zi ham tez-tez qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. *Bark* so'zi turk tilining izohli lug'atida mustaqil ma'noga ega so'z sifatida kelmagan, faqatgina ev – uy so'zi bilan birga kelgandagina ma'no kasb etadi. Turmush qurgan, bola-chaqali kishi'ayol ma'nosida keladi: "*Hem evli barklı bir kadın olduğundan haberi yok*".

<sup>1</sup> Gömeç S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış // Aile Yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 8.

<sup>2</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 834.

*mu bu salak şeyin?”* – A.Kutlu (Ham turmush qurgan ayol ekanligidan nahotki xabari bo‘lmasa bu axmoqning?). Turk tilida ev bilan bir qatorda fors tilidan o‘zlashgan *hane* so‘zi ham uy-joy, oila va uning a‘zolari ma’nolarida qo‘llaniladi: *“O‘g‘lan iyiydi; becerikli, yumuşak huyluydu ama hanesi kalabalıktı.”* – N.Cumalı (Yigit yaxshi edi; qo‘l-oyog‘i chaqqon, yumshoq tabiatli, lekin oilasi gavjumroq edi).

Turk tilida oila qurish *evlilik* deb atalishi haqida yuqorida biroz to‘xtalib o‘tgan edik va mazkur so‘zning semantikasi va tuzilishi to‘g‘risida ma’lumot bergan edik. Endilikda oila institutini yaratish uchun tamal hisoblanuvchi ushbu tushunchaning mazmun mohiyati va turk madaniyatidagi qadriyaviy ahamiyati borasida to‘xtalamiz. Birinchi galda turmush qurish oilada yangi muhit, yangi holat, yangi rol va yangicha hayot tarzini talab qiladi. Qizlar uchun bo‘y qizlik davrining, o‘g‘il bolalar uchun esa bo‘ydoqlikning tugashi bilan belgilanadi. Garchi turk tilidagi bo‘ydoqlik bilan bog‘liq maqollarning ba‘zilari *Bekarlık sultanlıktır* (M.Y.,201) (Bo‘ydoqlik sultonlikdir), *Bekarın mekanı sorulmaz* (M.Y., 200) (Bo‘ydoqning qoladigan joyi so‘ralmaydi) bo‘ydoqlikni ijobiy holat deya baholasa, aksariyat maqollar *Bekarın boynunu bit yer, tutup biriktirdiğini it yer* (M.Y., 200) (Bo‘ydoqning bo‘ynini bit yer, yig‘ib terganini it yer), *Bekarlık maskaralık* (M.Y., 201) (Bo‘ydoqlik masxaralik), *Varsa eşin rahattır başın* (M.Y., 209) (Turmush o‘rtog‘ing bo‘lsa, ko‘ngil xotirjam bo‘ladi) turmush qurishga tashviq qiladi. Har ikki tomon uchun ham yangi rol juftlarning o‘zaro ularning ota-onalari va yaqinlari, qolaversa, butun jamiyat bilan munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Turmush o‘rtoq tanlash va turmushning dastlabki yillari shuning uchun ham murakkab va mushkul jarayon sifatida baholanadi. Oilalarning har tomonlama moddiy, ma’naviy, diniy va ijtimoiy jihatdan bir-biriga mosligi alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Teng – tengi bilan mazmunida (*Davul dengine çalar* (M.Y., 201)) maqol shu jihatlar nazarda tutilgan holda yuzaga chiqqan, chunki sanab o‘tilgan jihatlarning har biri oila hayotida juftlarning o‘zaro tushinmovchiliklarini yuzaga chiqaruvchi omillar hisoblanadi.

Turk madaniyatida turmush o‘rtoq, umr yo‘ldosh tanlash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratiladi, chunki turmush qurayotgan yigit va qiz birinchi galda baxtiyor yashashi, davlat va jamiyat uchun sog‘lom va manfaatli farzand dunyoga keltirishlari lozim bo‘ladi. Bular oilaning dastlabki va eng muhim shartlaridan sanaladi. Umr yo‘ldosh tanlash masalasida qizlar tanlash yoki fikr bidirish huquqiga ega emasligi, hatto kelin kuyovni to‘y kuniga qadar ko‘rmaslik holatlari tez-tez uchrab turishi haqida Deniz Guler va Nazmi Ulutak o‘zlarining hammualliflikda yozgan maqolasi<sup>2</sup>da to‘xtalib o‘tadi. Bundan tashqari maqolada nikoh jarayoni haqida guvohlar kuyovning vazifalari haqida bayon qilinadi.

<sup>1</sup> Yıldırım N. Yaşam Döngüsünde Aile, Aile Bireyleri ve Akrabalar // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 38.

<sup>2</sup> Güler D. Ulutak, N. Aile kavramının tarihsel gelişimi ve Türk toplum yaşantısında aile // Kurgu Dergisi, 11.sayı, 1992. – s. 60.

Shariatga muvofiq ayollarga o'z mulklarini o'zlari xohlagandek sarflash huquqi berilganligiga qaramay, oilada er mutlaq hokimiyati amal qilishini ta'kidlaydi. Bu turk madaniyatidagi islomni qabul qilganidan keyingi jarayonlardagi holatlar. Lekin qadimda turk ayollari har sohada erkak bilan teng huquqli bo'lgan<sup>1</sup>. Juft tanlash turk madaniyatida davr va makonga xos tarzda o'zgarib turgan. Turk oilasi barpo bo'lishidagi endigi qadam sovchilik yoxud turkcha ta'bir bilan aytganda *kız isteme* marosimidir.

**Kız istemek** birikmasi "uylanish maqsadida ota-onasi yoki yaqinlaridan qizning qo'lini so'ramoq" ma'nosini beradi. "*Sen kızı kandıracaksın, sonra kaynananla gidip kızı isteyeceksin.*" – H.E. Adıvar<sup>2</sup> (Sen qizni avraysan, keyin qaynonang bilan borib, qizning qo'lini so'raysan). Qizning qo'lini so'rash udumi yigitlarning biror qizni yoqtirishi yoki ularning onalari xina kechasi (kına gecesi), to'y-marosimlari yoki hammomlarda, ya'ni ijtimoiylashuv sodir bo'ladigan maskanlarda yoqtirib qolishi natijasida ularning uylariga odam yuborish bilan boshlangan. Sharq madaniyatining yana bir oliy namunasi, yigitlarning otalariga uylanmoqchiman deb aytishga andisha qilganliklaridir. Bu holatda ona o'g'li va otasi o'rtasida "elchilik" vazifasini o'tagan. Yigitlar o'zlarining arz-u holini moniy orqali bayon qilganlar:

*Hey hızzara hızzara*

*Dalda kirez kızzara*

*Ana benim çağım geldi*

*Durma bana kız ara*

Ushbu moniyning ma'nosi, "qaranglar, gilos pishibdi, onajon, mening ham vaqtim keldi, men uchun qiz izlang". Shundan so'ng yigitning otasi yoki amakisi, qishloqning old kishilari bilan qizning eshigini taqillatishgan. Qizning otasi, kelgan odamlarning maqsadini bilsa ham xush kelibsizlar, suhbat qurgani keldinglarmi? -deya so'raydi. Yigit tomondan kelganlar qizing qo'lini so'rashga keldik, deydilar. Agar ularga qizlarini berishni xohlamasa, aybga buyurmang, og'alar, mening sotadigan qizim yo'q, qismatingizni boshqa ostonadan izlab ko'ringlar, deb qaytarib yuboradi. Agar berish istagi bo'lsa, daraxt bir urishda yiqilmaydi, qayta kelinglar o'ylashib ko'raylik, deydi<sup>3</sup>. Qizning otasining ra'yiga muvofiq yigit taraf yana bir yoki bir necha bor keladilar. *Kız evi, naz evi* (M.Y., 207) (Qiz uyi – noz uyi) maqoli shu holatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Qiz tomoni rozi bo'lgach, qalin belgilangan va **söz kesimi**, ya'ni tomonlar ahdlashuvi (o'zbeklardagi non sindirish) marosimi qilingan. Bu marosim, ya'ni *küçük düğün*<sup>4</sup> (kichik to'y)da *nişan yüzükleri* (belgi uzuklari) taqilgan va *nişanlı /adaklı* (belgili)

<sup>1</sup> Gömeç S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış // Aile Yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s. 7-8.

<sup>2</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 1434.

<sup>3</sup> Ataman S.Y. Eski Türk Düğünleri, Kültür Bakanlığı. – Ankara, 1992. – s. 12-13.

<sup>4</sup> Mandaloglu M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 490.

hisoblanishgan. Bu marosimlar hozirda ham udum tariqasida saqlanib qolgan. Shundan keyin tomonlar kelishuviga muvofiq nikoh uchun tayyorgarlik boshlab yuborilgan.

Nikoh – bu oila qurish uchun erkak va ayolning birlashishi. Turk jamoalarida nikoh an'analarining ilk izlari Xunlar davriga borib taqaladi. Bu an'analar Ko'kturklarda va boshqa turk jamoalarida davom etgan. Turk tilida *evlenme, evlenmek, evlenmek bark-lanmak, evlendirmek* so'zlari ko'p qo'llaniladi va ularning barchasi turmush qurish, uyli-joyli bo'lish ma'nosini beradi. *Ev bark* juft so'zi *uy* va *oilani* anglatadi. O'rxun bitiklarida "bark" so'zi ibodatxona ma'nosida qo'llangan. Uylangan o'g'il yoki turmushga chiqqan qiz ota uyini (ocağını) tashlab, yangi oila va uy barpo qilganlar. Nikoh – jamiyat ongi va ko'z o'ngida ikki kishining birlashi-shining rasmiylashtirilishi hisoblanadi. Turklarda nikoh yigit va qizning umumiy irodasi bilan oilalarning o'zaro roziligiga bog'liq deb qaralgan. Turklar tashqaridan qiz olib, tashqariga qiz berganlar. Turk jamiyatida nikoh muhim burch hisoblanib, turmush qur-maslik sharmandalik holat sanalgan<sup>1</sup>. Tabiiyki uylanmay yurgan yigit ham, turmushga chiqmayotgan qiz ham bu holatdan bezovtalik tuygan. Ba'zan yigitlar ro'zg'orni tebratish sababidan uylanishni ortga surishgan. Shu holat uchun *Nikahta keramet var* (M.Y., 208) (Nikohda karomat bor), *Allah evlenle, ev alana yardım eder* (M.Y., 199) (Alloh uylangan va uy olganga o'zi madadkor bo'ladi) qabilidagi maqollar orqali ularni uylanishga tashviq qilganligiga guvoh bo'lamiz. Yana ushbu maqollardan oila ilohiy ekanligi, unga Allohning o'zi madadkor ekanligini bilib olishimiz mumkin.

**Düğün** so'zi, ya'ni to'y, qadimgi turkiy tildagi *tugmoq, boylamoq* so'zlaridan yasalgan bo'lib, *bog'lam, tugun, turmush qurish ahdi*<sup>2</sup> degan ma'nolarni anglatadi. Turk madaniyatida ham hozirgi globallashtirilgan dunyodagi singari to'ylar oilalarning iqtisodiy ahvolidan kelib chiqqan holda turli-turman ko'rinishlarda o'tkazilmoqda. Lekin xalq madaniyatiga singib ketgan urf-odat va an'analar Turkiyaning turli joylarida ozmi ko'pmi saqlanib qolgan va kunimizda ham davom etmoqda. Turk to'ylaridagi umumiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, qisman to'xtalib o'tamiz. To'ylar ertak va dostonlardagi singari uch kun davom etgan. Odatda, to'y juma kuni yigitning uyida davul (nog'ora) va zurna (surnay) sadolari ostida turli noz-ne'matlar pishirib, qarindosh-urug' va yaqinlar to'planishi bilan boshlangan. Shu kuni kechga yaqin qizning uyiga bir qo'y yoki qo'chqor bo'yalgan holda bezatilib yuborilgan. To'yning ikkinchi kuni asosan qiz uyida qizni *xina kechasi* uchun tayyorlash bilan o'tgan. Xina kechasi turli xil *turku* (turkiy qo'shiqlar), moniyalar va marsiyalar aytilib qiz yig'latilgan, keyin ko'p yig'lamasin uchun *halay* (turk milliy raqsi) boshlangan va o'yin-kulgu bilan davom etgan. Qiz uyiga kelgan yigit tomonga eshiklar yopib qo'yilgan, ulardan sovg'a yoki pul olganlaridan keyin ichkariga kiritishgan. Shu vaqt mobaynida

<sup>1</sup> Mandaloğlu M. Ko'rsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s.489.

<sup>2</sup> <https://www.etimoloji-turkce.com/kelime/d%C3%BC%C4%9F%C3%BCn>

turkular aytilgan va boshqa o'ziga xos marosimlar o'tkazilgan. Uchinchi kun qizning uyidan kuyovning qarindoshlari kelinning beliga qizil belbog' bog'lab, yana bir qator udumlarni o'tkazib olib chiqadilar. Yigitning uyiga kelganida kelin uyga orqa bilan kiradi, buning ma'nosi ota uyidan qizil belbog' bilan chiqib, bu uydan kafan bilan chiqsin, ya'ni umrbod qolsin, deganidir. Yuqorida nomi keltirilgan urf-odat va marosimlar: *kız isteme* (qizning qo'lini so'rash), *söz kesme/nişan* (non sindirish) va *nikah / düğün* (nikoh / to'y) oila institutini tashkil qiluvchi omillar hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga xos an'ana va udumlarni talab qiladi.

Qadimgi turk jamiyatida turmush qurish uchun yigit va qizning roziligidan tashqari ota-onaning ham roziligi talab qilingan, shuning uchun erkak tomoni bo'lajak kelinning oilasiga talabgor bo'lib boradi. Sovchilik (*kız isteme*) marosimida jamiyatning ko'zga ko'ringan, obro'li kishilari hozir bo'lishi muhim hisoblangan. Bu odamlar ikki oila yoki ikki yoshning o'zaro kelisha olishlari muhim rol o'ynagan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida bu jarayondagi vositachilar bilan bog'liq turli atamalarni keltirib o'tgan. Bu so'zlar ichida "*sawçı*" (sovchi) qarindosh-urug' va qudalar o'rtasidagi elchi; "*yorigçı*" (yo'riqchi) qarindoshlar, qudalar orasida kelib-ketuvchi odam; "*arkuçı*" – ikki kishi o'rtasi-dagi vositachi; sovcilik jarayonida qudalar orasida kelib-ketadigan odamni anglatadi<sup>1</sup>. Sovchi yoki yigitning otasi bo'lajak kelinning otasidan yoki akasidan "Tangrining amri bilan" deya so'raydi. Qadimgi turk oilasida mutlaq hokimiyatga ega bo'lsa-da, otasi qizining rozilgisiz erkak tomoniga hech qanday javob bermagan<sup>2</sup>. Bu qadimgi turk madaniyatida oilada qiz bolaning xohish-istaklari inobatga olinganidan darak beradi.

Onadolu va O'rta Osiyoda nikoh asosan qalin kelishuvidan keyin qizning uyida o'qilgan. Nikoh o'qishdan oldin qalin va sarpo miqdorlari belgilab olingan. Nikoh paytida suv ichish va soqol kesish kabi islomiyatdan oldingi urf-odatlar ham bajarilgan. Ba'zi turk jamiyatlarida er-xotin turmushi birinchi farzand tug'ilgandan so'nggina nikoh jarayoni yakunlangan deb hisoblangan<sup>3</sup>. Ko'kturk yodgorligida uylanish uchun qiz tomonga beriladigan pul yoki mol-mulk shaklidagi badal – qalin deb atalgan. Mahmud Koshg'ariy devonida ham ushbu so'z "*Kaling*" deb keladi<sup>4</sup>. Qalinni to'lash-ga qurbi yetgan kishi qizni olib ketishga haqdor bo'lgan. Ya'ni erkak ayolni oladigan kuch-qudratga ega ekanligi qalin orqali isbotlangan. Shu sababli maqollarda *olmoq* fe'li asosan erkaklarga qarata murojaat, buyruq ohangida keltiriladi. *Alma soysuzun kızını, sürer gider*

<sup>1</sup> Kaşgarlı Mahmud. Divani Lugati-t Türtl // Türk Dil Kurumu Yayınları. – Ankara 1992. – C.III, s. 154, C.II, s.51, C.I, s.141,

<sup>2</sup> Mandaloğlu M. Ko'rsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022, 489.s.

<sup>3</sup> Öztürk M. İslamiyetten Önce Türklerde Aile ve Kutadgu Bilig'de Türk Ailesi, Prof. Dr. Abdulkadir Yuvalı Armağanı, Cilt 2, s. 899-913, Kardeşler Ofset. – Kayseri, 2015. – s. 902.

<sup>4</sup> Eröz M., Güler, A. Türk Ailesi, Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları. – Akara, 1998. – s. 13.

*anasının izini* (M.Y., 199) (Nasli buzuqning qizini olma, onasining izini (ishini) davom ettiradi) maqolida uylanish chog'idagi yigit, u orqali ota-onasi ogohlantiriladi. Kelin olishda oilasi o'ziga to'q, nasl-nasabli odamlar bo'lishiga diqqat qaratilgan *Al görmüşün kızını, tutsun dolana dolana; al görmemişin kızını, tutsun ilene ilene* (M.Y., 199) (Ol ko'rganning qizini, turmushni tebratsin aylana o'rgila, ol ko'rmaganing qizini turmushni tebratsin elana elana). Ko'rgan va ko'rmagan sifatdoshlari orqali o'ziga to'q va nochor kishi obrazlari ko'rsatilgan. Shuningdek, turk xalqida kelin sarposiga ham ahamiyat qaratilgan. Turk tilida *çeyiz* (sarpo) so'zi xalq madaniyatida oilaviy munosabatlar, oila konsepti tarkibidan joy olgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Sarpo tushunchasi maqollarda ham uchrashi turk madaniyatida qadimdan borligidan dalolat beradi: *Kız beşikte çeyiz sandıkta* (A.Ö., 362) (Qiz beshikda, sarposi sandiqda). Shuningdek, maqolda keltirilgan *beşik* (beshik) so'ziga ham to'xtalib o'tsak. Beshik turk tilining izohli lug'atida "taxta yoki temirdan yasalgan, chaqaloqni tebratib uxlatishga mo'ljallangan yotoq"<sup>1</sup> ta'rifi keltiriladi. Majoziy ma'noda esa, biror narsaning dunyoga kelib rivojlangan joyini anglatadi. Beşi – tebratmoq fe'li va -k ot yasovchi qo'shimchadan yasalgan so'zdir<sup>2</sup>. Beshik nafaqat turk madaniyati, balki turkiy madaniyatning eng qadimgi meroslaridan biri hisoblanadi. U bilan bog'liq marosimlar, udumlar buning dalilidir. Beshik so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar esa mazkur tushunchaning xalqlarning lisoniy manzarasidan ham chuqur joy olganligidan darak beradi. *Beşiğini sallamak* – beshigini tebratmoq iborasi turk tilida biror kishini kichikligidan tanimoq, juda uzoq paytdan beri tanimoq yoki ulg'ayishida xizmat qilmoq ma'nolarini beradi. *Beşikten mezara kadar* – beshikdan to qabrgacha iborasi esa butun umri mobaynida, hayoti davomida ma'nolarini anglatadi. *Beşik kertiği* chaqaloqlarni beshikdalik payti unashtirib qo'yilgan kishilar uchun qo'llanilsa, *beşik kertme* birikmasi esa chaqaloqlarni beshikdalik payti unashtirib qo'yishni bildiradi. Beshik va u bilan bog'liq urf-odatlar turkiy xalqlar orasida o'ziga xoslik kasb etadi. Turk madaniyatida sekin-astalik bilan beshik o'z o'rnini tebranma yotoqchalarga bo'shatib bermoqda. Yo'qolib borayotgan beshik an'analari va udumlarini Professor Fatma Yildirmish o'zining maqolasida<sup>3</sup> atroflicha yoritib bergan.

Oila konseptining leksik sathda qanday so'zlar yordamida verballashuvi – hissiyot yoki fikrlarning so'zlar yordamida ifodalanishini<sup>4</sup> ko'rib chiqamiz, ya'ni

<sup>1</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 317.

<sup>2</sup> Koshenova G. Kazakistan ve Türkiye'deki Ahşap Beşiklerin Tarihi Sanatsal Özellikleri, KMÜ Sosyal ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi 16 (Özel Sayı II): 2014. – s. 155.

<sup>3</sup> Yıldırım F. Trabzon'da Kaybolan Bir Kültür Ögesi: Geleneksel Ahşap Beşik // Mavi Atlas, 5(2)/2017.

<sup>4</sup> Verbalize. Oxford Advanced Learner's Dictionary // Eighth edition, Oxford University press, – England, 2012. – p. 1173

oila soʻzi turk tilida yana qanday soʻzlar, oʻxshatishlar orqali ifodalanishini oʻrganamiz.

Oila er-xotin markazda, ularning atrofida yaqinlari joy oluvchi jamiyatning eng kichik birligi, qarindoshlik rishtalari bilan bogʻlangan jamoadir. Boshqa tomondan nikoh, turmush qurish orqali paydo boʻlgan yangi oila faqatgina erkak va ayolni bir-biriga bogʻlab qolmasdan, har ikki tomonning oilalari oʻrtasida yangi va oʻziga xos aloqa oʻrnatish orqali ijtimoiy birdamlik, samimiy munosabatlar va tinchlikka xizmat qiladi. Musulmon jamiyatlarida oila va davlat oʻzaro birga izohlanadi, yaʼni har bir oila tuzilish jihatidan kichik davlatdir, davlat esa oʻsha millatning katta oilasidir<sup>1</sup>. Qadimgi turklarda davlat tuzilmasining asosini kuchli qoʻshin va oila tashkil qilgan. Xunlardan boshlab turklar oila tuzilmasini mustahkam muhofaza qilishga ahamiyat qaratganlar. Xun davlatida oila kuchini yoʻqotishi urushda magʻlubiyatga uchrash bilan teng koʻrilganligini<sup>2</sup> yozadi Dr. Mandalogʻlu. Biroq oilaga taʼrif berish borasida sotsiolog va antropolog olimlar qarashlarida mutanosibliklar koʻzga tashlanadi. Chunki oilaning shakli va uning mexanizmi turli jamiyatlarda oʻziga xosligi bilan farqlanadi. Hatto bir jamiyat ichida hududlarga nisbatan ham farqlilikni koʻrish mumkin boʻladi. Oila instituti va tushunchasi sotsiolog olimlar tomonidan bir qator kategoriya va sinflarga ajratilib tadqiq qilingan boʻlib, ular: *yadro oila* (er-xotin va farzand(lar)), *katta oila* (er-xotin, farzandlar, erkakning ota-onasi), *avtoritar oila* (oila yadrosining tartib-intizomiga asoslangan oila), *mexanizmini yoʻqotgan oila* (er-xotin oʻz vazifa va masʼuliyatlarini bajaril-maydigan yoki ajrashgan, buzilgan, er yoki xotin vafot etishi natijasida yuzaga chiqqan oila) kabilardir<sup>3</sup>. Turklarda katta oilalar kichrayib, er-xotin va ularning bir yoki ikki farzandidan iborat yadro oila turi koʻpayib borayotgani kuzatilmoqda. Lekin hozirgi zamonda ham Turkiyaning ayrim hududlarida bir tom ostida oʻn ikki nafargacha farzandli oilalarni (asosan, kurd oilalarida) uchratish mumkin<sup>4</sup>.

Biror bir xalqni, millatni yaxshi anglash uning ijtimoiy tuzilmasini yaxshi oʻrganib chiqishni taqozo etadi. Turk millatining ijtimoiy holatini oʻrganish uchun eng ishonchli usul turk yozma manbalariga murojaat qilamiz. Ushbu manbalarining boshida, albatta, Koʻkturk yodgorliklari keladi, chunki Koʻkturk davlat tashkiloti va ijtimoiy tuzilmasi oʻzidan keyingilar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Koʻkturk yodgorliklarida turklarning ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi quyidagi atamalarni uchratamiz: *oğuş* – oila, *urug* – oilalar birlashmasi, *bod* –

<sup>1</sup> Köse S. Aile va Akrabalık (İslam’da)

[https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile\\_ve\\_akrabalik\\_islamda](https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile_ve_akrabalik_islamda)

<sup>2</sup> Mandaloğlu M. Koʻrsatilgan asar, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s.483.

<sup>3</sup> Altuntek S. Aile va Akrabalık [https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile\\_ve\\_akrabalik](https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile_ve_akrabalik)

<sup>4</sup> Evason N. Family. 2019. <https://culturalatlas.sbs.com.au/turkish-culture/turkish-culture-family#turkish-culture-family>



urugʻ, qabila, *bodun* – qabilalar ittifoqi, *il* – mustaqil jamiyat, davlat<sup>1</sup>. Qadimgi turklarda davlat boshqaruvchisi boʻlgan Xoqonlar xalqqa murojaat qilganida oʻziga yaqin insonlardan boshlab, “...oʻgʻlanim, oʻgʻusum...”<sup>2</sup> tarzida nutq irod qilganlar. *Oʻgʻus* soʻzi koʻkturkcha lugʻatida oila; “Devoni lugʻotit turk”da *oymak* – qarindosh, xesh<sup>3</sup> maʼnolarida keladi.

Hozirgi kunga kelib, turk tilida oila atamasi arab tilidan oʻzlashgan *aile* soʻzi bilan ifodalanadi. Turk tilining izohli lugʻatida *aile* soʻzining oltita maʼnosi keltiriladi<sup>4</sup>. Birinchisi, turmush qurish yoki qon-qarindoshlik rishtalari bilan bogʻlangan, er, xotin, bolalar, aka-uka (opa-singil)lar orasidagi munosabatlarda paydo boʻladigan jamiyat ichidagi eng kichik birlik: *Birbirlerine nasıl turkun, yangın bir aile olduklarını sayıp döktü.* –L.Tekin (Bir-birlariga qachalik mehribon, inoq oila ekanliklarini ogʻzini toʻldirib gapirdi). Ikkinchi maʼnosi esa, bir nasl yoki qarindoshlik rishtalari boʻlgan kishilarning hammasi: *Kendilerinin hangi asil aileye mensup olduklarını bilmiyorum.* –N.Hikmet (U kishining qaysi aslzoda oiladan ekanliklarini bilmayman) nazarda tutadi. Uchinchi maʼnosi, birgalikda istiqomat qiladigan qarindoshlar va yaqinlarning barchasi boʻlsa, toʻrtinchisi turmush oʻrtoq, xotin degan maʼnoni beradi. Beshinchi maʼnosi bir gʻoya ostida birlashgan va birga ishlaydigan kishilar jamoasi. Oltinchisi umumiy xususiyatdagi til, hayvon yoki oʻsimlik guruhleri, familiyasi. Shuningdek, oila ichi munosabatlar va oilaga oid tushunchalarni ifodalovchi bir qator birliklar ham aile soʻzi yordamida yasalganligini koʻrishimiz mumkin. *Ailece* va *ailecek* soʻzlari “barcha oila aʼzolari bilan birga” degan maʼnoda qoʻllaniladi. Masalan, “*Evimizi, evimizde ailece birlikte yapılan çok şeyi özliyorum*”. –A.Ağaoğlu (Uyimizni, uyimizda birgalikda oilaviy qiladigan koʻp ishlarni qoʻmsayapman). Aile hayati deyilganda esa, oila qonun-qoidasi, tartibi doirasida oʻtadigan hayot, umr, oila boʻlib yashash tushuniladi: “*Bütün mahalle halkı aile hayatını kontrol ederdi*”. – F.R. Atay (Butun mahalla aholisi oila hayotini nazorat qilib turardi). *Aile ocağı* esa, majoziy maʼnoda qoʻllanilib, oila aʼzolarining oʻzaro inoqlik, mehr-muhabbat ichida yashab-ulgʻayadigan muhitni anlatadi: “*Neşeli, memnun bir aile ocağı vücuda getire-ceğiz*”. – H.C.Yalçın (Quvnoq, mamnun oilaviy muhit yaratamiz).

Turk tilida oila tushunchasi haqida gap ketganida ***ocak***, ***yuva*** soʻzlari ham qoʻllaniladi. *Ocak* soʻzining etimologiyasiga qaraydigan boʻlsak, birinchi galda “otash, olov” demakdir. Keyinchalik bu olovning yaʼni oʻchoqning issiqligi, tafti

<sup>1</sup> Gömeç S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s.3.; Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 483.

<sup>2</sup> <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>

<sup>3</sup> <https://www.turkcenindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>

<sup>4</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011. – s. 57.

uyga va oilaga o'tgan, shu tariqa yangi ma'nolar kasb etgan<sup>1</sup>. O'choq turk madaniyatida uy burchagidagi ovqat pishirish va uyni isitish uchun bir vosita bo'libgina qolmasdan, butun uyni, oilani o'zida namoyon qiladi. Turmush qurish esa "so'nmas olov yoqish" demakdir. Uyga kelgan kelin "uyni yoritadigan olov"ga o'xshatilgan. Turmush qurish 'o'choqqa olov yoqish" sifatida qaralgan. Olovning so'nishi esa oilaning yo'q bo'lib ketishini anglatgan. *Güvey* (kuyov) uylangan ayolini, bo'lajak xotinini otasining o'chog'iga olib bormagan, o'zi ham xotinining o'chog'iga bormagan. Qadimgi turklarda ichkuyovlik bo'lmaganidek, kuyov uyida kelinlik ham bo'lmagan. Yangi turmush qurganlar yangi uy – oila qurishgan, kenja o'g'il otasining uyida qolishda davom etgan. Kichik o'g'il ota o'chog'ini yoqqangligi uchun "ot tigin" deb atalgan<sup>2</sup>. *Ocak* so'zining turk tili izohli lug'atida o'n bir ma'nosi keltiriladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi ma'nolari aynan o'choq, pechka va gaz/elektr plitasini anglatga, o'ninchi ma'nosi aynan uy, oila, nasl ma'nosida ishlatiladi: "*Henüz temelleri atılmayan kendi ocağım kurulmadan yıkılmıştı*". – A.Gündüz (Hali tamal toshi qo'yilmagan o'z uyim qurilmasdan yiqilgan edi). *Ocak* so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar ham oila bilan bog'liq ma'nolarni bildiradi. Ushbu iboralar odatda salbiy ma'no tashiydi. Xususan, *ocağı batmak* iborasi oilasi parchalanmoq yoki nasli tugamoq ma'nosini bildiradi. *Ocağı kör kalmak* iborasi nasli tugamoq, naslini davom ettiruvchi farzandi bo'lmaslik ma'nosini beradi. *Ocağı sönmek* iborasi oila parchalanmoq, yo'q bo'lmoq, bola-chaqasi yo'q bo'lmoq degani: "*Aşk tuzakları birçok ocakların sönmesine sebep olmuştur*". – F.R.Atay (Ishq tuzoqlari ko'plab oilalarning parchalanishiga sabab bo'ldi). *Ocağı tütmek* iborasi ijobiy xususiyatga ega bo'lib, nasli davom etmoq, hayoti davom etmoq ma'nolarida qo'llaniladi. *Ocağına incir dikmek* yoki *ocağına darı ekmek* iboralari biror kishining oilasi buzmoq ma'nosida qo'llaniladi: "*İhmal bütün ocaklara incir diker*". – Ö.Seyfettin<sup>3</sup> (Loqaydlik barcha oilalarni vayron qiladi). Anjir ekmoq yoki don ekmoq aslida ijobiy ish sanaladi, lekin ocağına ya'ni o'chog'iga anjir yoki don ekish salbiy ma'noda keladi.

**Yuva** so'zining ham turk tili izohli lug'atida sakkizta ma'nosi bo'lib, birinchi ma'nosi qush yoki boshqa hayvonlarning ini, uyasi va boshpanasi demakdir. Ikkinchi ma'nosi esa odatda oilalar istiqomat qiladigan uyni anglatadi: "*İnsanın kendi yuvasından daha sıcak ... ve samimi hiçbir yer olmazdı*". – S.F.Abasıyanık (Insonning o'z uyidan o'zga issiqroq... va samimiyroq hech bir joy yo'q edi). *yuva* so'zi ishtirokidagi bir qator iboralar ham oila bilan bo'g'liq tushunchalarni anglatadi. Xususan, *yuva kurmak* "uylanmoq, turmush qurmoq" ma'nosini beradi: "*Aşıksak, aşık olduğumuz gençle, yalnız onunla bir yuva*

<sup>1</sup> Mamegasanova A.A. Farkli toplumların dil dünya görüşü bağlamında 'ev', 'aile', 'ocak' konseptleri // Kültürdilbilim: temel kavramlar ve sorunlar. – Ankara, 2014. – s.138.

<sup>2</sup> Mandaloglu M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 492.

<sup>3</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011, 1786.s

*kurmak istiyorsak, o kapı da her şeye karşın hala ve hep açıktı*". – A.Ağaoğlu (Oshiq bo'lsak, ko'ngil qo'ygan yigit bilan, faqat u bilan turmush qurishni xohlayotgan bo'lsak, u eshik har narsaga qaramasdan hamon va hamisha ochiq edi). Yuva yapmak iborasi ham uylanmoq, turmushga chiqmoq ma'nolarini beradi: "Halbuki genç kızla yuva yapmak, ölinceye kadar bahtiyar yaşamak için..." – Ö.Seyfettin (Vaholanki bo'y qizga uylanish bir umr baxtiyor yashash uchun...). Yuvayı bozmak, dağıtmak, yıkmak iborolari oilani buzmoq, parchalamoq ma'nolarida qo'llaniladi: Yuvayı yapan da yıkan da dişi kuştur (M.Y., 210) (Uyani quradigan ham, buzadigan ham moda qush bo'ladi). Yuvayı yürütmek iborasi esa oilani tebratmoq ma'nosini anglatadi: "Yuvayı kurma, yuvayı yürütmek sorumluluğu yine benim üstümdeydi". – C.Uçuk<sup>1</sup> (Uy qurish, oilani tebratish javobgarligi yana mening zimmamda edi).

Turk madaniyatida oila uchun uy, xonadon, o'tov nechog'lik muhim bo'lsa, bu maskanlarga kirish – ostona (*eşik*) ham shu darajada ahamiyatli hisoblanadi. Qadimda turklar o'zlari istiqomat qiladigan maskanni muqaddas deb bilganlar. Shu sababli jamiyat va davlat asosini tashkil qilgan oilaning kundalik hayotini kechiradigan joylar ham ular uchun aziz bo'lgan. Bu muqaddas makonga kirish uchun hamma avvalo eshikdan yoki ostonadan o'tishi lozim. Ostona ularning dunyosining yoki hayotining boshlang'ich joyi hisoblangan. Tarixda turklarning e'tiqodlariga ko'ra insonlarni, oilani va millatni nazorat qilib turadigan malaklar bor deb ishonishgan. Haq dinlarda bunday malaklar insonlarning o'ng va chap tomonida joy olganliklari singari qadimgi turklarning eshiklari yoki ostonalarining o'ng va chap tarafida poyloqchilik qilishiga ishonganlar<sup>2</sup>. Shundan kelib chiqqan holda, o'sha muqaddas mavjudodlarni ranjitmaslik yoki bosib olmaslik uchun qadimda va hozirgi kunda turklar uylariga kirishda ostonani bosib olmaslikka harakat qiladilar.

### **Xulosa.**

Turk maqollaridagi oilaning qadriyat sifatlarini belgilovchi beshik, sarp, qalin, uylanish, tumushga chiqish, sovchilik kabi birliklar aniqlandi va tahlilga tortildi. Ushbu tushunchalarning barchasi oila konseptining kichik, ammo muhim parchalari ekanligi ma'lum bo'ldi.

Turk madaniyatida oila qadimda og'ush deb atalgan bo'lib, keyinchalik arab tilidan kirib kelgan *aile* so'zi orqali ifodalangan. Turk madaniyatida oila konsepti singari kishilar yashaydigan bino va uning tarkibiy qismi bo'lgan uyni anglatasa, ba'zi maqollarda uyni ostonasi, hatto, uning issiqligi va taomlarini tayyorlashda qo'llaniladigan o'choq timsolida ifodalanadi. Oila deyilganda nafaqat uy, balki xonadon ahli ham nazarda tutilishi aniqlandi. Shuningdek, in-uya kabi majoziy so'zlar ham oilani bildirib kelishi lug'atlar vositada aniqlandi.

<sup>1</sup> Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011, 2619.s

<sup>2</sup> Gömeç, S. Türk Ailesine Genel Bir Bakış, Aile Yazıları / 7, Birinci baskı, Ankara: Aralık 2015, 8.s.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Gömeç S. Türk ailesine genel bir bakış // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık, 2015.
2. Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı. – Ankara, 2011
3. Yıldırım N. Yaşam Döngüsünde Aile, Aile Bireyleri ve Akrabalar // Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015
4. Güler D., Ulutak N. Aile kavramının tarihsel gelişimi ve Türk toplum yaşantısında aile // Kurgu Dergisi, 11.sayı, 1992.
5. Ataman S.Y. Eski Türk Düğünleri, Kültür Bakanlığı. – Ankara, 1992.
6. Mandaloğlu M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022.
7. Kaşgarlı Mahmud. Divani Lugati-t Türt // Türk Dil Kurumu Yayınları. – Ankara 1992. – C.I, II, III.
8. Öztürk M. İslamiyetten Önce Türklerde Aile ve Kutadgu Bilig’de Türk Ailesi, Prof. Dr. Abdulkadir Yuvalı Armağanı, Cilt 2, s. 899-913, Kardeşler Ofset. – Kayseri, 2015.
9. Eröz M., Güler A. Türk Ailesi, Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları. – Akara, 1998.
10. Koshenova G. Kazakistan ve Türkiye’deki Ahşap Beşiklerin Tarihi Sanatsal Özellikleri, KMÜ Sosyal ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi 16 (Özel Sayı II): 2014.
11. Mamegasanova A.A. Farklı toplumların dil dünya görüşü bağlamında ‘ev’, ‘aile’, ‘ocak’ konseptleri // Kültürdilbilim: temel kavramlar ve sorunlar. – Ankara, 2014.
12. Yıldırım F. Trabzon’da Kaybolan Bir Kültür Ögesi: Geleneksel Ahşap Beşik // Mavi Atlas, 5(2)/2017.
13. Oxford Advanced Learner’s Dictionary // Eighth edition, Oxford University press, – England, 2012.
14. [https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile\\_ve\\_akrabalik\\_islamda](https://ansiklopedi.tubitak.gov.tr/ansiklopedi/aile_ve_akrabalik_islamda)
15. <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarih-te-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>
16. <https://www.turkceindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>
17. <https://culturalatlas.sbs.com.au/turkish-culture/turkish-culture-family#turkish-culture-family>
18. <https://www.etimolojiturkce.com/kelime/ev>